

KONSTITUTSIYA ERKIN VA FAROVON HAYOT GAROVI

Muhammadjonova Mashhura Jamolbek qizi

Abu Rayhon Beruniy nomidagi Urganch davlat Universiteti

Ijtimoiy iqtisodiy fanlar fakulteti Tarix yo`nalishi 1-bosqich talabasi

Elektron po`chta: muhammadjonovamashhura@4gmail.com.

Tel: +998888816232

Shoira Nurullayeva

Ilmiy rahbar: t.f. n., dots.

Annotatsiya: *Ushbu maqolada konstitutsiyaning davlat va jamiyat hayotidagi o`rni, uning inson huquqlari va erkinliklarini yoritib beradi. Konstitutsiyada qonun ustuvorligi, demokratik boshqaruv va boshqa muhim masalar tahlil qilinadi. Konstitutsiya siyosiy, huquqiy, iqtisodiy va ma'naviy barqarorlikning kafolati sifatida o`rganiladi. Shuningdek, O'zbekiston tajribasi, amalga oshirilayotgan islohotlar va fuqarolik ongining kuchayishida asosiy qonunning tutgan o`rni yoritiladi.*

Kalit so`zlar: *Konstitutsiya, huquqiy erkinlik, farovonlik, demokratiya, fuqaro, davlat islohotlar, ijtimoiy adolat, huquqiy davlat.*

Abstract: *This article highlights the role of the constitution in the life of the state and society, its human rights and freedoms. The Constitution analyzes the rule of law, democratic governance and other important issues. The Constitution is studied as a guarantee of political, legal, economic and spiritual stability. It also highlights the experience of Uzbekistan, the ongoing reforms and the role of the fundamental law in strengthening civic consciousness.*

Keywords: *Constitution, legal freedom, prosperity, democracy, citizen, state reforms, social justice, legal state.*

Kirish. “Konstitutsiya” so`zi lotincha “constitution” so`zidan olingan bo`lib “tuzish, tartibga solish, belgilash” ma`nolarini bildiradi. Konstitutsiya davlatning bosh qonuni, ya`ni mamlakatning siyosiy tuzumi, hokimiyat tuzilishi, fuqarolarning asosiy huquq va erkinliklari hamda davlat bilan jamiyat o`rtasidagi munosabatlarni belgilab beruvchi eng muhim hujjatdir. Konstitutsiyada davlat tuzilishi va boshqaruv tizimi Prezident, parlament, sud va hukumat vakolatlari, fuqarolarning huquq, erkinlik va majburiyatlari, qonunlarning qaysi tamoyillarga asoslanishi ko`rsatib o`tilgan. Shuning uchun Konstitutsiya davlat hayoti, adolat, tinchlik va farovonlikning asosiy huquqiy kafolatidir.

Konstitutsiya jamiyat hayotida qanday muhim ahamiyatga ega ekanligini O`zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining qabul qilinish jarayonidan ko`rishimiz mumkin. Konstitutsiya loyhasi uchun 1990-yilda Oliy Kengash huzurida Konstitutsiya loyihasini tayyorlash bo'yicha komissiya tuzildi. Komissiyaga Prezident I. A. Karimov raislik qilgan. Komissiya tarkibiga olimlar, yuridik mutaxassislar, deputatlar, siyosatchilar va jamoat

vakillari kirgan. Bu komissiya konstitutsiyaning ilmiy-huquqiy asosini ishlab chiqdi. Konstitutsiya loyihasi matbuotda e'lon qilingan. Odamlar taklif va fikrlarini gazeta, televideniye, radio va xalq deputatlari orqali yuborgan. 5 mingdan ortiq takliflar kelib tushgan va ularning ko'pi loyiha matniga kiritilgan. Bu esa konstitutsiyani xalq konstitutsiyasiga aylantirdi. Shunday qilib O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi 1992-yil 8-dekabr kuni qabul qilingan. Bugungi kungacha qo'shimcha va o'zgartirishlar kiritilgan. Buday o'zgarishlardan biri O'zbekistonda 2023-yil 30-aprelda o'tkazilgan referendum orqali Konstitutsiyaning 65 foizi yangilandi. Bu islohotlar zamonaviy O'zbekistonning ehtiyojlariga mos holda, inson manfaatlarini birinchi o'ringa qo'ygan yangi konstitutsion tartiblarni yaratdi. Unga ko'ra konstitutsiyada 6 bo'lim, 27 bob va 155 moddadan iborat bo'ldi.

“Konstitutsiya erkin va farovon hayot garovi” degan fikr bejiz aytilmaydi. Chunki Konstitutsiya davlatning bosh qonuni sifatida jamiyat taraqqiyoti, inson huquq va erkinliklarini himoya qilishning eng muhim huquqiy asosidir. Unda fuqarolarning yashash, ta'lim olish, mehnat qilish, so'z va vijdon erkinligiga bo'lgan konstitutsiyaviy kafolatlar mustahkamlangan. Bu esa odamlarning o'z salohiyatini ro'yobga chiqarishi, tadbirkorlik bilan shug'ullanishi, oilasini obod qilishi hamda tinch va barqaror hayot kechirishi uchun sharoit yaratadi. Shu bois Konstitutsiya nafaqat davlat boshqaruvi tizimini belgilaydi, balki jamiyatda adolat, tenglik, hurmat va mas'uliyat kabi qadriyatlarning ustuvor bo'lishini ta'minlaydi. Uni chuqur bilish, hurmat qilish va unga amal qilish har bir fuqaroning burchidir. Chunki Konstitutsiya xalqning erki va kelajagi, erkin va farovon hayotning ishonchli poydevoridir.

Har bir demokratik jamiyatning taraqqiyoti, barqarorligi hamda inson qadr-qimmatining yuksak darajada e'tirof etilishi, avvalo, mamlakatda amal qiluvchi Konstitutsiya bilan chambarchas bog'liqdir. Chunki u davlatning siyosiy-huquqiy tuzilmasini belgilaydigan, xalq irodasini ifoda etadigan, fuqarolarning asosiy huquq va erkinliklarini kafolatlaydigan eng oliy hujjatdir. Shu ma'noda u erkin, tinch va farovon hayotning ishonchli poydevori hisoblanadi.

Bosh qomusimiz inson huquqlari ustuvorligini ta'minlab, har bir fuqaroning sha'ni, qadri, e'tiqodi va erkin fikrlash huquqini himoya qiladi. Bundan tashqari, Konstitutsiya davlat hokimiyati bo'linishi tamoyilini belgilash orqali adolat, oshkoralik, qonun ustuvorligi va mas'uliyatli boshqaruvni ta'minlaydi. Fuqarolik jamiyatining shakllanishi, nodavlat tashkilotlar faoliyati, ommaviy axborot vositalari erkinligi ham konstitutsiyaviy normalar bilan qo'llab-quvvatlanadi. Natijada jamiyatda demokratiya kuchayadi, qonun oldida tenglik ta'minlanadi, korrupsiyaga, zo'ravonlikka, kamsitishga yo'l qo'yilmaydi. Shu bois Konstitutsiyani chuqur bilish, unga hurmat bilan yondashish, uning normalariga amal qilish har bir fuqaroning burchi va mas'uliyatidir. Zero, Konstitutsiya xalqning irodasi, davlat mustaqilligi, milliy taraqqiyot va insonparvarlik tamoyillarining mujassam ifodasidir.

Xulosa o'rnida aytish mumkinki, qabul qilingan bosh qomusimiz jamiyat manfaatiga xizmat qiladigan xalqchil qonundir. Shuningdek, unda keltirilgan normalar bu so'zning

yaqqol namunasidir. Masalan yuqorida aytib o'tilganidek, ijtimoiy davlat tuzumi bu jamiyatning har tomonlama qo'llab quvvatlanishi hamda yengilliklar yaratilishiga ishoradir. Shunday ekan jamiyatning har bir a'zosi bu kabi imkoniyatlardan samarali foydalanib, davlat ravnaqiga o'z hissasini qo'shishi lozim. Zero, bu kishilarning o'zlari avfzal ko'rgan sohada, o'zlari xohlagandek rivojlanishiga tamon ochilgan bir keng yo'l kabidir. Prezidentimizning bu borada ilgari surayotgan islohatlari, jamiyatga nisbatan sadoqatidandir va bu bizni yanada mas'uliyatli bo'lishga undashi lozim.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Karimov I.A. O'zbekistonning o'z istiqlol va taraqqiyot yo'li. – Toshkent: O'zbekiston. 1992.
2. Mirziyoyev Sh.M. Yangi O'zbekiston strategiyasi. – Toshkent: "O'zbekiston" 2021.
3. O'zbekiston Respublikasida inson huquqlarini ta'minlash bo'yicha milliy dastur. Toshkent. Adliya vazirligi nashriyoti. 2022.
4. https://constitution.uz/oz/pages/Konstitusiyamizning_yaratilishi.